

Olimlar plastik chiqindilarini sirka kislotasiga aylantirish usulini taklif qilishdi

// 24.03.2026

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/olimlar-plastik-chiqindilarini-sirka-kislotasiga-aylantirish>



Xalqaro olimlar guruhi plastmassa chiqindilarini quyosh nuri yordamida sirka kislotasiga aylantirish usulini ishlab chiqdi. Tadqiqot natijalari Advanced Energy Materials jurnalida e'lon qilingan.

Ular temirning yakka atomli katalizatorlaridan foydalangan holda uglerod nitridi asosida fotokatalizator yaratishdi. U ko'rinadigan nurni yutib, plastik polimer zanjirlarini parchalovchi qator kimyoviy reaksiyalarni boshlaydi.

Ishlab chiquvchilarning ma'lumotiga ko'ra, ushbu texnologiya suv muhitida plastikning asosiy turlarini — polietilentereftalat, polietilen, polipropilen va polivinilxlorid (PVX)ni qayta ishlash imkonini berishi mumkin. Shu bilan birga, hozircha bu usul laboratoriya bosqichida ekani ta'kidlanmoqda. Mutaxassislar fikricha, kelajakda u plastikni qayta ishlash uchun quyoshga asoslangan qurilmalar yaratishga zamin bo'lishi mumkin.